

## TAFSIR TURLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

*Satvaldiyeva Zebo Mahmudovna  
O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi  
“Islomshunoslik” ta'lif yo'naliши 4-kurs talabasi,  
Telefon raqami: +998993736944  
Ilmiy rahbar: Sodiqov Jo'rabet Sobirboyevich  
O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi  
“Islomshunoslik va islam sivilizatsiyasini o'rganish  
ICESCO” kafedrasi dotsenti vazifasini bajaruvchisi,  
Islomshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya:** Qur'oni Karim mazmun jihatidan ma'nosи keng bo'lib, uni turli zamonlarda har xil olimlar o'z bilim va dunyoqarashlari doirasida tushunganlar. Xuddi shuningdek, mufassirlarning o'z uslublari, har bir uslubning o'z yondashuvlari ham bo'lgan. Tafsir uslublari orasidagi farqlarni bir-biriga zid deb qabul qilmaslik lozim. Chunki mufassir bir uslubni asos qilib olishi bilan boshqa uslubdan ham foydalanadi. Demak, tafsir uslublari bir-biri bilan bog'langan deb to'laqonli ravishda aytish mumkin. Har bir tafsir uslubi Qur'oni tushunish va uning ma'nolarini ochib berishda o'ziga xos yondashuvga ega.

**Tayanch so'zlar:** tafsir, tahliliy, ijmoliy, muqorin, mavzuviy tafsir.

Tafsirga berilgan ta'riflarni umumlashtirib shunday deyish mumkin:

“Fasr – bu bayon (aniq tushuntirish)dir. Fasr – bir narsani aniqlashtirish, tafsir esa uning ma'nosini ochib berishdir. Keyin u qo'shimcha qiladi: fasr – bu yashirin narsani ochib berish, tafsir esa murakkab so'zning ma'nosini tushuntirishdir”<sup>1</sup>.

“Tafsir” lug'atda “fassara” fe'lidan kelib chiqqan bo'lib, “bayon qilish, tushuntirish, ochib berish va sharhlash” ma'nolarini bildiradi<sup>2</sup>.

Olimlar tafsir uslublarini quyidagi to'rt turga bo'lishadi. Bulardan : Tahliliy, ijmoliy, muqorin va mavzuviy tafsirlar.

Tafsir uslublarining farqlanishi, ba'zilari bir-biriga qarama-qarshi bo'lsa ham, tafsirchi ularning biridan boshqasiga ehtiyoj sezishi mumkin. Masalan, u muqoyasali (qiyosiy) yoki mavzuli tafsir bilan shug'ullansa ham, tahliliy tafsirdan voz kecha olmaydi. Shuningdek, tahliliy tafsir ham ba'zan mavzuli yoki qiyosiy tafsirga ehtiyoj sezadi. Demak, tafsir uslublari o'zaro bog'liq va tafsirchi ulardan butunlay voz kecha olmaydi.

<sup>1</sup> Muhammad Husayn Zahabiy. At-Tafsir val-Mufassirun. – Qohira: Maktabatu-l-vahba, 1976. – B. 10.

<sup>2</sup> <https://xadicha.uz/oz/news/169> [murojaat sanasi: 09.02.2025].

Tafsirchi o‘z tafsirini ko‘pincha biror uslub asosida yozadi. Ulamolar tafsir uslublarini quyidagi to‘rt asosiy turga ajratganlar:

Tahliliy tafsir quyidagi o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi:

Eng keng tarqalgan va muhim tafsir turi: Bu tafsir uslubi eng mashhur bo‘lib, o‘tmishda ham, hozirda ham muhim hisoblanadi.

Hajmi turlicha: Ba’zi tahliliy tafsirlar ixcham bo‘lsa, boshqalari juda keng qamrovli bo‘lib, bir necha jildni tashkil etadi.

Boshqa tafsirlarga asos bo‘lishi: Tahliliy tafsir barcha oyatlarni bat afsil yoritgani sababli, ijmoliy, muqorin va mavzuviy tafsirlarga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Oyatlarning ketma-ketligi: Oyatlar ketma-ket sharhlangani uchun, tafsirning aqliy, naqliy, tarixiy, balog’at, fiqhiy, ilmiy, falsafiy yoki ishoriy yo‘nalishda ekanligi yanada ravshanlashadi<sup>3</sup>.

2. Ijmoliy tafsir uslubida oyatlar Qur’on tartibiga muvofiq keltirilib, ularning ma’nolari umumiy tarzda izohlanadi. Bu uslubda mufassir oyatlarning asosiy maqsadini qisqacha bayon etadi va matn bilan tafsir o‘rtasida bog‘liqlikni ta’minlaydi. Ba’zilar bu uslubni “oyatlarni ixcham va umumiy tarzda sharhlash hamda bir yoki bir nechta oyatlarning ma’nolarini bat afsil izohlamaslik” deb ta’riflaydilar. Ijmoliy tafsirda oyatlar so‘zma-so‘z sharhlanmaydi; ba’zi hollarda nozil bo‘lish sabablari kabi masalalar yoritiladi. Shu jihatdan, bu tafsir uslubi ma’naviy tarjimaga o‘xshaydi.

Ijmoliy tafsirning tahliliy tafsirdan farqlanadigan bir nechta xususiyatlari mavjud :

Umumiy ma’nolarni anglash: Ijmoliy tafsirni o‘qigan kishi tafsilotlarga berilmasdan, oyatlarning umumiy ma’nolarini tushunishi mumkin.

Qisqa va aniq ifoda: Mufassirning maqsadi umumiy ma’noni eng qisqa yo‘l bilan yetkazishdir.

Oddiy va tushunarli til: Qo‘llaniladigan so‘zlar ko‘pchilik ishlata digan va hammaga ma’lum bo‘lgan iboralardan iborat bo‘ladi.

Asosiy mohiyatga e’tibor: Izohda Qur’ondan ko‘zlangan asosiy mohiyatga e’tibor qaratiladi.

3. Muqorin tafsir uslubi Qur’on oyatlarini sharhlashda bir nechta manbalarni taqqoslash va tahlil qilishga asoslanadi. Bu uslubda mufassirlar bir yoki bir nechta oyatni izohlar ekan, mavzuga oid boshqa oyatlar, hadislar, sahaba va tobe’inlarning so‘zlari, boshqa mufassirlarning fikrlari hamda boshqa samoviy kitoblardagi dalillarni keltiradilar. Muqorin tafsir uslubi mufassirlardan keng bilim va chuqr tahlil qobiliyatini talab qiladi, chunki ular turli manbalarni o‘rganib, ularni solishtirishi va eng to‘g‘ri xulosani chiqarishi kerak. Bu uslub Qur‘onni tushunishda keng qamrovli va chuqr yondashuvni ta’minlaydi. Muqorin tafsir uslubining muhim jihatlari quyidagilardan iborat:

<sup>3</sup> Dr. Walid bin Atiyyah bin Ali Al-Harbi. At-Tahrir fi Usul at-Tafsir . – Dammam: Maktabat Al-Mutanabbi. 2019. – B. 314.

Haqiqatga erishish: Turli manbalarni taqqoslash orqali ishonchli fikrlarni qabul qilish va zaif yoki asossizlarini rad etish imkonini beradi. Botil qarashlar, zaif rivoyatlar va sog‘lom aqlga to‘g‘ri kelmaydigan sharhlardan tafsirlarni tozalashga yordam beradi.

Mufassislar fikrlarini o’rganish: Mufassislarning dalil keltirish va rad etish usullari, shuningdek, ixtilof sabablarini o‘rganish imkoniyatini yaratadi.

Fikrlar o‘xshashligi va farqlarini aniqlash: Mufassislar qarashlari orasidagi o‘xshashlik va farqlarni ajratish, dalil keltirish usullarini tadqiq etish imkonini beradi.

Dalillarni jamlash va tahlil qilish: Dalillarni to‘plash, ularni o‘rganish va belgilangan qoidalar asosida saralash, shuningdek, olimlarning tafsir bo‘yicha tajribalaridan foydalanish imkonini beradi.

Ilmlarni taqqoslash: Muqorin tafsirlarida qiroat, hadis, lug‘at, balog‘at, qoidalar va boshqa ilmlarni taqqoslash, ajratish va rad etish bilan bog‘liq sabablarni o‘rganish imkonini beradi.

Ushbu jihatlar muqorin tafsir uslubining ahamiyatini oshiradi va Qur’on oyatlarining chuqurroq va to‘g‘riroq tushunilishiga xizmat qiladi.

Muqaran usulida bir tafsirning boshqasiga nisbatan taqqoslashi o‘rganiladi. Bu taqqoslash Qur’on oyatlarining boshqa oyatlar bilan, oyatlarning hadislarga aloqadorligi yoki mufassirlar fikrlarini solishtirish orqali amalga oshiriladi<sup>4</sup>.

4. Mavzuiy tafsirlarda oyat sharhlari Qur’on kitobi tartibiga ko‘ra emas, balki biror bir aniq mavzu doirasida beriladi. Shu tarzda oyatlar jamlanib, sharhanadi, hukm va ma’nolar keltiriladi hamda mavzu doirasidagi mazmun atroflicha yoritib beriladi. Mavzuiy tafsirlar Qur’on suralarini muayyan mavzular asosida tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, bunda bir surada keltirilgan mavzu ajratib olinadi va shu sura doirasida atroflicha yoritiladi. Ushbu tafsir uslubining quyidagi ko‘rinishlari mavjud:

Bir suradagi yagona mavzuni sharhlash: Bu usulda mufassir bir surada keltirilgan bitta mavzuni ajratib olib, uni sharhlaydi va boshqa suralarga murojaat qilmaydi.

Bir nechta suralarda uchraydigan, lekin muayyan surada batatsil yoritilgan mavzularni sharhlash: Masalan, vahdaniyat (Allohning yagonaligi) masalasi Qur’oni karimning ko‘p joylarida uchraydi, lekin An’om surasida keng va batatsil yoritiladi. Shunday qilib, ushbu suradagi mavzu olinib, tafsir qilinadi.

Faqat bir surada uchraydigan mavzularni sharhlash: Masalan, Baqara surasidagi Bani Isroil qissasi, Kahf surasidagi ikki bog‘ egalarining hikoyasi, Luqmon surasidagi Luqmonning nasihatlari kabi tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan va faqat ushbu suralarda uchraydigan voqealar tafsir qilinadi<sup>5</sup>.

<sup>4</sup>[https://www.researchgate.net/publication/385865637\\_Muqaran\\_Tafsir\\_Method\\_Its\\_History\\_Basis\\_and\\_Implications](https://www.researchgate.net/publication/385865637_Muqaran_Tafsir_Method_Its_History_Basis_and_Implications)  
[murojaat sanasi: 07.02.2025]

<sup>5</sup> Dr. Walid bin Atiyyah bin Ali Al-Harbi. At-Tahrir fi Usul at-Tafsir . – Dammam: Maktabat Al-Mutanabbi. 2019. – B. 321.

Tadqiqotchi tomonidan suradagi bir mavzuni chuqur o‘rganish: Bu usulda tadqiqotchi Qur’ondagi bir surani alohida o‘rganadi, u yerdagi bir qancha mavzular orasidan birini tanlab, chuqurroq tahlil qiladi va boshqa mavzular ichida uning ahamiyatini ochib beradi hamda o‘quvchiga bitta va mukammal bo‘lgan mavzuni taqdim etadi.

Mavzuiy tafsir uslubi Qur’on mazmunini chuqurroq tushunishga yordam beradi va o‘quvchilarga muayyan mavzular bo‘yicha bat afsil ma’lumot olish imkonini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, Qur’oni Karimning tafsiri turli uslublarga bo‘linib, har biri o‘ziga xos yondashuvga ega. Tadqiqot davomida tahliliy, ijmoliy, muqorin va mavzuviy tafsir turlari o‘rganildi. Tahliliy tafsir oyatlarni bat afsil tahlil qilishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, ijmoliy tafsir qisqa va umumiylizoh berishga asoslangan. Muqorin tafsir turli manbalarni taqqoslash orqali aniqroq xulosaga kelishga xizmat qiladi, mavzuviy tafsir esa muayyan mavzu doirasida oyatlarni tahlil qiladi.

Tafsir uslublari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, mufassirlar Qur’on mazmunini to‘g‘ri anglash va yetkazishda ularning turli jihatlaridan foydalanganlar. Har bir uslub o‘zining ilmiy va amaliy ahamiyatiga ega bo‘lib, Qur’onni to‘g‘ri tushunish va sharhlashda muhim rol o‘ynaydi. Qur’oni Karimning mazmunini chuqur tushunish uchun turli mufassirlar o‘z zamonasiga, bilimi va yondashuviga qarab har xil tafsir uslublarini qo‘llaganlar. Ushbu uslublarning har biri Qur’on oyatlarini anglashda muhim rol o‘ynaydi va ular o‘zaro bog‘liq holda shakllangan.

Tafsirchi qaysi yo‘nalish va uslubni tanlasa, u orqali Qur’ondagi ma’nolarni va dalillarni tushuntiradi. Bu esa tafsirning metodologiyasi va maqsadlariga bog‘liq bo‘ladi. Har bir tadqiqotchi uchun yagona maqsad – Qur’onni tushunish va unga ergashishdir, chunki Qur’on mo‘jizasi tugamaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhammad Husayn Zahabiy. At-Tafsir val-Mufassirun. – Qohira: Maktabatu-l-vahba, 1976. – B. 10.
2. Dr. Walid bin Atiyyah bin Ali Al-Harbi. At-Tahrir fi Usul at-Tafsir . – Dammam: Maktabat Al-Mutanabbi. 2019. – B. 314.
3. <https://xadicha.uz/oz/news/169>
4. [https://www.researchgate.net/publication/385865637\\_Muqaran\\_Tafsir\\_Method\\_Its\\_History\\_Basis\\_and\\_Implications](https://www.researchgate.net/publication/385865637_Muqaran_Tafsir_Method_Its_History_Basis_and_Implications)